



**Р.Д. КАШКАРОВ, Ю.О. МИТРОПОЛЬСКАЯ,
А.Г. ТЕН, Н.Н. АЗИМОВ, Ф.К. ЖУМАЕВ**

**КЛАССИФИКАЦИЯ ВИДОВ ПОЗВОНОЧНЫХ ЖИВОТНЫХ
ПО ТИПУ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЗНАЧИМОСТИ И СТЕПЕНИ
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ (амфибии, рептилии, птицы, млекопитающие)**



— — — — —
**UMURTQALI HAYVONLAR
TURLARINING IQTISODIY
AHAMIYATI VA FOYDALANISH
DARAJASI TIPLARI BO‘YICHA
TASNIFI**
**(amfibiylalar, reptiliyalar,
qushlar, sutemizuvchilar)**



АКАДЕМИЯ НАУК РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
ИНСТИТУТ ЗООЛОГИИ

**Р.Д. Кашкаров, Ю.О. Митропольская,
А.Г. Тен, Н.Н. Азимов, Ф.К. Жумаев**

**КЛАССИФИКАЦИЯ ВИДОВ ПОЗВОНОЧНЫХ
ЖИВОТНЫХ ПО ТИПУ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ
ЗНАЧИМОСТИ И СТЕПЕНИ
ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
(амфибии, рептилии, птицы,
млекопитающие)**

Методические рекомендации



Издательство «Фан»
Ташкент 2023

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
ZOOLOGIYA INSTITUTI

**R.D. Kashkarov, Y.O. Mitropolskaya,
A.G. Ten, N.N. Azimov, F.Q. Jumayev**

**UMURTQALI HAYVONLAR
TURLARINING IQTISODIY AHAMIYATI
VA FOYDALANISH DARAJASI TIPLARI
BO‘YICHA TASNIFI
(amfibiyalar, reptiliyalar,
qushlar, suturemizuvchilar)**

Uslubiy tavsiyanoma



“Fan” nashriyoti
Toshkent 2023

UO‘K: 597/599-591.6(575.111)

Taqrizchilar:

D.A. Azimov O‘zR FA Zoologiya instituti bosh ilmiy xodimi, b.f.d., professor, akademik

A.R. Jabborov Sh. Rashidov nomidagi Samarqand vadlat Universiteti Biokimyo instituti Zoologiya kafedrasini mudiri, b.f.d., professor

Umurtqali hayvonlar turlarining iqtisodiy ahamiyati va foydalanish darajasi tiplari bo‘yicha tasnifi (amfibiyalar, reptiliyalar, qushlar, sutemizuvchilar): Uslubiy tavsiyanoma / R.D. Kashkarov, Y.O. Mitropolskaya, A.G. Ten, N.N. Azimov, F.Q. Jumayev. – Toshkent, 2023. – 56 b.

“Uslubiy tavsiyanoma” asosan quruqlikdagi umurtqali hayvonlar faunasi resurslarini barqaror boshqarish, ulardan foydalanishda optimal iqtisodiy samaraga erishish uchun ilmiy asoslangan uslublarni amaliyotga joriy etishga mo‘ljallangan.

Nashr hayvonot dunyosini saqlash masalalari bilan shug‘ullanuvchi, ko‘paytirish va fauna resurslaridan foydalanishni rejalashtiruvchi, tabiatni muhofaza qilishga yo‘naltirilgan ilmiy va amaliy tashkilotlarning xodimlari hamda ixtisoslashtirilgan oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llanma sifatida foydalanishga mo‘ljallangan.

Uslubiy tavsiyanoma O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti Ilmiy kengashining 2023-yil 26-sentabrdagi 8-sonli yig‘ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan.

Nashr O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya institutining “Umurtqali hayvonlar faunasi inventaritsiyasi, hozirgi holatini baholash va undan barqaror foydalanish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish” fundamental loyihasi doirasida amalga oshirildi.

Materiallardan foydalanishda havola keltirish majburiy

- © O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti
- © Tuzuvchi-mualliflar: R.D. Kashkarov, Y.O. Mitropolskaya, A.G. Ten, N.N. Azimov, F.Q. Jumayev.
- © Muqova fotosurati: R.D. Kashkarov
- © O‘zR FA “Fan” nashriyoti, 2023.

ВВЕДЕНИЕ

Биологические ресурсы являются важной составляющей экономического развития, экологической безопасности и благосостояния общества. В частности, экономически значимые виды наземных позвоночных животных – это тот потенциал, устойчивое использование и управление которым дает обществу целый ряд прямых экономических выгод.

При планировании мероприятий по устойчивому использованию биоресурсов, таких как охота, регулирование численности вредителей сельского хозяйства, борьба с носителями опасных болезней и т.д., необходимо использовать качественные и количественные показатели, которые соответствуют категориям видов по типу их экономической значимости и степени их использования. Такой подход также позволит разработать и внедрить в процесс планирования механизмы экономической оценки компонентов биологического разнообразия.

Оптимальный экономический эффект от использования биологических ресурсов (в данном случае – ресурсов фауны наземных позвоночных животных) может быть достигнут только научно-обоснованными методами устойчивого управления. В естественных экосистемах каждый биологический вид имеет свое место и играет важную роль в поддержании ее стабильности. В соответствии с этим, в составе фауны не может быть только «полезных» или только «вредных» для хозяйственной деятельности видов. Исследования показывают, что многие ресурсные, оказывающие положительное влияние на хозяйственную деятельность виды – объекты охоты, регуляторы численности сельскохозяйственных вредителей и т.д. – в определенные сезоны или периоды своего жизненного цикла могут наносить ущерб сельскому хозяйству, быть источниками

KIRISH

Biologik resurslar iqtisodiy rivojlanish, ekologik xavfsizlik va jamiyat farovonligining muhim tarkibiy qismidir. Xususan, iqtisodiy ahamiyatga ega quruqlikdagi umurtqali hayvon turlari, undan barqaror foydalanish va boshqarish, jamiyatga to‘g‘ri-dan-to‘g‘ri qator iqtisodiy foyda keltiradigan potensial hisoblanadi.

Ov qilish, qishloq xo‘jaligi zararkunandalari sonini tartibga solish, xavfli kasalliklarni tashuvchilariga qarshi kurashish va boshqa biologik resurslardan barqaror foydalanish bo‘yicha tadbirlarni rejalashtirishda, iqtisodiy ahamiyatning turiga va ulardan foydalanish darajasiga ko‘ra toifalarga mos keladigan turlarni sifat va miqdoriy ko‘rsatkichlaridan foydalanish zarur. Shuningdek, bunday yondashuv biologik xilma-xillikning tarkibiy qismlarini iqtisodiy baholash mexanizmlarini ishlab chiqish va rejalashtirish jarayoniga joriy etish imkonini beradi.

Biologik resurslardan (ushbu holatda - quruqlikdagi umurtqali hayvonlar faunasi resurslari) foydalanishda optimal iqtisodiy samaraga, faqatgina barqaror boshqaruvning ilmiy asoslangan usullari orqali erishish mumkin. Tabiiy ekotizimlarda har bir biologik tur o‘z o‘rniga ega va uning barqarorligini saqlashda muhim rol o‘ynaydi. Shunga mos ravishda, faunada xo‘jalik faoliyat uchun faqat “foydali” yoki faqat “zararli” turlar bo‘lishi mumkin emas. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, xo‘jalik faoliyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan ko‘plab resurs ahamiyatidagi – ov obyektlari, qishloq xo‘jaligi zararkunandalari sonini tartibga soluvchi va boshqa turlar – ma’lum davrlarda yoki hayot faoliyati davomida qishloq xo‘jaligiga zarar etkazishi, ifloslantirish, yuqumli kasalliklar va biologik zararlanish manbalari bo‘lishi mumkin. Shuningdek, bir turdagi hayvonning iqtisodiy ahamiyati turli mintaqalarda sezilarli darajada farqlanadi.

загрязнений, инфекционных заболеваний и биоповреждений. Также уровень экономической значимости одних и тех же видов животных в различных регионах значительно отличаются.

Таким образом, оценка экономической значимости видов дикой фауны является непростой задачей и определяется многими факторами.

В Законе Республики Узбекистан «Об охоте и охотничьем хозяйстве» в отношении экономически значимых видов приводится только одно понятие – «виды диких животных, наносящие вред охотничьему хозяйству и хозяйственной деятельности человека». В «Перечне видов диких животных, подлежащих государственному учету, учету объемов их использования и включению в государственный кадастр объектов животного мира» (Министерство экологии, охраны окружающей среды и изменения климата РУз, далее Министерство экологии РУз, 2023) в рамках выполнения Постановления Кабинета Министров Республики Узбекистан «О ведении государственного учета, учета объемов использования и государственного кадастра объектов животного и растительного мира», все наземные позвоночные животные разделены на 4 категории, требующие дополнения и детализации.

Как мы видим, целенаправленная классификация экономически значимых видов по типу и степени их использования в Узбекистане разработана недостаточно. Основой для подготовки настоящих «Методических рекомендаций» послужили результаты плановых научных исследований лаборатории позвоночных животных Института зоологии Академии наук Республики Узбекистан в 2022 году по теме «Определение современного распространения, состояния популяций и мест обитания экономически значимых видов позвоночных животных Сырдарьинской и Джизакской областей».

Shunday qilib, yovvoyi fauna turlarining iqtisodiy ahamiyatini baholash murakkab vazifa hisoblanadi va ko‘plab omillar bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ov qilish va ovchilik xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonunida iqtisodiy ahamiyatga ega turlarga nisbatan faqat bir tushuncha – “Ovchilik xo‘jaligiga va insonning xo‘jalik faoliyatiga zarar yetkazuvchi yovvoyi hayvonlar turlari” nazarda tutilgan. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning “Hayvonot va o‘simlik dunyosi obyektlarining davlat hisobini, ulardan foydalanish hajmlari hisobini va davlat kadastrini yuritish to‘g‘risida”gi Qarorini bajarish doirasida 2023 yilda O‘zR Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (keyingi o‘rinlarda O‘zR Ekologiya vazirligi) tomonidan tuzilgan “Davlat tomonidan hisobga olinadigan, foydalanish hajmlari hisobga olinadigan va hayvonot dunyosi obyektlarining davlat kadastriga kiritiladigan yovvoyi hayvonlar turlarining ro‘yxati”da 4 toifaga bo‘lingan barcha quruqlikdagi umurtqali hayvonlar qo‘shimcha va tafsilotlarni talab qiladi.

Ko‘rib turganimizdek, O‘zbekistonda iqtisodiy ahamiyatga ega turlarning tiplari va ulardan foydalanish darajasi bo‘yicha maqsadga yo‘naltirilgan tasnifi yetarlicha mukammal ishlab chiqilmagan. Mazkur “Uslubiy tavsiyanoma”ni tayyorlashda O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti Umurtqali hayvonlar laboratoriyasining 2022-yilda “Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida umurtqali hayvonlarning iqtisodiy ahamiyatli turlarining zamonaviy tarqalishi, populyatsiyasining holati va yashash joylarini aniqlash” mavzusi bo‘yicha bajarilgan rejali ilmiy tadqiqot natijalari asos bo‘ldi.

Taklif etilayotgan “Uslubiy tavsiyanoma”ning I-qismida umurtqali hayvonlarning iqtisodiy ahamiyatga ega turlarini tasniflashga doir yondashuvlar bayon qilingan.

В I части предлагаемых «Методических рекомендаций» описываются подходы к классификации экономически значимых видов позвоночных животных.

Во II части «Методических рекомендаций» (практической) демонстрируется применение описанных подходов для определения категории (типа) экономической значимости и оценки степени использования позвоночных животных на примере Сырдарьинской и Джизакской областей. Приводятся списки экономически значимых видов амфибий, рептилий, птиц и млекопитающих и степень их использования в разрезе указанных областей.

“Uslubiy tavsiyanoma”ning II-qismida (amaliy) Sirdaryo va Jizzax viloyatlari misolida umurtqali hayvonlarning iqtisodiy ahamiyatga ega toifasini (tipini) aniqlash va ulardan foydalanish darajasini baholash uchun tavsiflangan yondashuvlarni qo‘llash ko‘rsatilgan. Amfibiyalar, sudralib yuruvchilar, qushlar va sutmizuvchilarning iqtisodiy ahamiyatga ega turlarining ro‘yxati va ulardan ko‘rsatilgan viloyatlar kesimida foydalanish keltirilgan.

ЗАКОНОДАТЕЛЬНО-ПРАВОВЫЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ПРОВЕДЕНИЯ КЛАССИФИКАЦИИ ОБЪЕКТОВ ЖИВОТНОГО МИРА ПО ТИПУ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЗНАЧИМОСТИ

В ряде международных и национальных природоохранных документов отмечается, что устойчивое использование биологических ресурсов играет важную роль в экономике современного общества:

- Согласно Конвенции о сохранении биоразнообразия (КБР, ст. 8, 10), «каждая страна регулирует или рационально использует биологические ресурсы для обеспечения их сохранения и устойчивого использования, принимает меры в области использования биологических ресурсов, с тем, чтобы предотвратить или свести к минимуму неблагоприятное воздействие на биологическое разнообразие».

- Сохранение и устойчивое использование природной среды и биоресурсов в период интенсивного экономического и социального развития Узбекистана является актуальной задачей и одним из приоритетных направлений природоохранной политики Узбекистана, направленной на предотвращение экологических проблем, наносящих урон состоянию окружающей среды, здоровью и генофонду населения (Указ Президента РУ «О Стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», №УП-4947, 2017).

- В Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан «О совершенствовании системы государственного мониторинга окружающей природной среды в Республике Узбекистан» (глава 3, ст. 33), объектами мониторинга, в числе других, являются дикие животные, имеющие экономическое значение (ПКМ-№737, 2019).

HAYVONOT DUNYOSI OBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI BO‘YICHA TASNIFINI YURITISHNING QONUNYI- HUQUQIY SHARTLARI

Tabiatni muhofaza qilish borasidagi bir qator xalqaro va milliy hujjatlarda, biologik resurslardan barqaror foydalanish, zamonaviy jamiyat iqtisodiyotida muhim rol o‘ynashi qayd etilgan:

- Biologik xilma-xillik to‘g‘risidagi konvensiyaga (CBD, 8, 10-modda) ko‘ra, “har bir mamlakat biologik resurslarni muhofaza qilish va barqaror foydalanishni ta‘minlash uchun ularni boshqaradi yoki tartibga soladi, biologik xilma-xillikga salbiy ta‘sir ko‘rsatishning oldini olish yoki uni minimallashtirish maqsadida biologik resurslardan foydalanish sohasida chora-tadbirlar ko‘radi”

- O‘zbekistonning jadal iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi davrida tabiiy muhit va biologik resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, O‘zbekistonning tabiatni muhofaza qilish siyosatining dolzarb vazifasi va ustuvor yo‘nalishlaridan biri - atrof-tabiiy muhit, aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan ekologik muammolarni oldini olishga qaratilgan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni).

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 5-sentabrdagi 737-son “O‘zbekiston Respublikasida atrof tabiiy muhitning davlat monitoringi tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori (3-bob, 33-modda), iqtisodiy ahamiyatga ega yovvoyi hayvonlar ham monitoring obyekti hisoblanadi.

- “O‘zbekiston Respublikasining ekologik faoliyati samaradorligining III sharhi” da (2020) ta’kidlanganidek, tabiatni muhofaza qilish strategiyalarini ishlab chiqishda iqtisodiy ahamiyatga

- В «III Обзоре результативности экологической деятельности Республики Узбекистан» (ОРЭД, 2020) отмечается, что ревизия фауны экономически значимых видов, мониторинг состояния их популяций и среды обитания имеют первостепенное значение для выработки стратегии сохранения, воспроизводства и устойчивого использования компонентов животного мира, особенно с учетом последствий глобального изменения климата.

Необходимость проведения классификации позвоночных животных с точки зрения их социально-экономического значения определяется задачами, содержащимися в следующих природоохранных законодательных документах:

- Закон Республики Узбекистан от 19 сентября 2016 года № ЗРУ-408 «О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «Об охране и использовании животного мира».

Классификация видов диких животных необходима для обеспечения действий, указанных в главах 4 и 5 настоящего Закона: рационального использования, воспроизводства и регулирования численности диких животных (ст. 24); согласования биотехнических мероприятий (ст. 25), предотвращения заболеваний с участием ветеринарной службы (ст. 27), проведения государственной экологической экспертизы проектов по устройству охотничьих и рыболовных угодий, переселению и акклиматизации (ст. 28); при пользовании объектами животного мира, определении и утверждении квот на добычу диких животных (ст. 29).

- Закон Республики Узбекистан от 8 июля 2020 г. № ЗРУ-627 «Об охоте и охотничьем хозяйстве».

В соответствии с этим Законом, классификация видов диких животных необходима для установлении квот на

ega turlar faunasining auditi, populyatsiyalari va ularning yashash joylarining holatini monitoring qilish, xususan, global iqlim o'zgarishi oqibatlarini inobatga olgan holda hayvonot dunyosini ko'paytirish va tarkibiy qismlaridan barqaror foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Umurtqali hayvonlarni sotsial-iqtisodiy ahamiyati nuqtai nazaridan tasniflash zarurati quyidagi tabiatni muhofaza qilishga yo'naltirilgan qonun hujjatlarida nazarda tutilgan vazifalar bilan aniqlanadi:

- O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 19-sentabrdagi O'RQ-408-sonli "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi "O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni.

Yovvoyi hayvonlar turlarini tasniflash ushbu Qonunning 4 va 5-boblarida nazarda tutilgan harakatlarni ta'minlash uchun zarur: yovvoyi hayvonlardan oqilona foydalanish, ularni tiklash va takror ko'paytirish (24 modda); biotexnik tadbirlarni kelishish (25 modda); veterinariya xizmati ishtirokida kasalliklarning oldini olish (27 modda); ovchilik va baliq ovlash joylarini qurish, yovvoyi hayvonlarni ko'chirish va iqlimlashtirish loyihalarini davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazish (28 modda); hayvonot dunyosi obyektlaridan foydalanishda, yovvoyi hayvonlarni ovlash uchun kvotalar belgilash va tasdiqlashda (29 modda).

- O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 8-iyuldagi O'RQ-627-sonli "Ov qilish va ovchilik xo'jaligi to'g'risida"gi Qonuni.

Ushbu Qonunga muvofiq, yovvoyi hayvonlarni ovlash uchun kvotalar belgilashda yovvoyi hayvonlar turlarini tasniflash zarur (15-modda); ovchilik xo'jaligiga va insonning xo'jalik faoliyatiga zarar yetkazuvchi yovvoyi hayvonlarni otish (tutib olish) masalalarini hal qilish (15-modda).

добывание (ст.15); при решении вопросов отстрела (отлова) диких животных, наносящих вред охотничьему хозяйству и хозяйственной деятельности человека (ст. 25)

- Перечень видов диких животных, подлежащих государственному учету, учету объемов их использования и включению в государственный кадастр объектов животного мира (Министерство экологии РУз, 2023).

Представленный «Перечень...» нуждается в дополнении существующей классификации.

- Закон Республики Узбекистан «О внесении дополнений и изменений в статью 43 Закона Республики Узбекистан «Об охране и использовании животного мира», №ЗРУ-867 от 7.09.2023.

Настоящим Законом предусмотрены определенные ограничения для физических лиц и порядок содержания юридическими лицами в полувольных условиях, искусственно созданной среде обитания или в неволе диких хищных и ядовитых животных, включенных в специальный Перечень (статья 43). При содержании и разведении экономически-значимых видов, входящих в утвержденный Перечень хищных и ядовитых животных, необходимо соблюдение всех требований данного Закона.

I. МЕТОДОЛОГИЯ И ПОДХОДЫ

В качестве модельной территории для разработки методологии и подходов к оценке экономической значимости и использования позвоночных животных были выбраны Сырдарьинская и Джизакская области Узбекистана общей площадью 25 490 км².

На территории Сырдарьинской области представлены естественные понижения, искусственные водоемы, речные террасы Сырдарьи и сопутствующие этому ландшафту старицы, отдельные массивы приречных песков и участки тугайного

- “Davlat tomonidan hisobga olinadigan, foydalanish hajmlari hisobga olinadigan va hayvonot dunyosi obyektlarining davlat kadastriga kiritiladigan yovvoyi hayvonlar turlarining ro‘yxati” (O‘zR Ekologiya vazirligi, 2023).

Taqdim etilgan “Ro‘yxat ...” mavjud tasniflar bilan to‘ldirishi kerak.

- O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 7 sentabrdagi O‘RQ-867-sonli “Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni-ning 43-moddasiga qo‘shimcha va o‘zgartirish kiritish haqida”gi Qonuni.

Ushbu Qonunda jismoniy shaxslarga nisbatan cheklovlar belgilangan va yuridik shaxslar tomonidan maxsus Ro‘yxatga kiritilgan yovvoyi yirtqich va zaharli hayvonlarni yarim erkin sharoitlarda, sun’iy ravishda yaratilgan yashash joylarida saqlash tartibi belgilangan (43-modda). Yirtqich va zaharli hayvonlarning tasdiqlangan Ro‘yxatiga kiritilgan, iqtisodiy ahamiyatga ega turlarni saqlash va ko‘paytirishda ushbu Qonunning barcha talablariga rioya qilish zarur.

I. USLUBLAR VA YONDASHUVLAR

Umurtqali hayvonlarning iqtisodiy ahamiyati va foydalanishini baholash metodologiyasi va yondashuvlarini ishlab chiqishning namunaviy hududi sifatida O‘zbekistonning 25 490 km² maydonini egallagan Sirdaryo va Jizzax viloyatlari tanlangan.

Sirdaryo viloyati hududiga tabiiy botiqliklar, sun’iy suv havzalari, Sirdaryo daryosining terrasalari va ushbu landshaftga bog‘liq daryoning eski o‘zani o‘rnida shakllangan kichik ko‘llar, daryo qumlarining alohida massivlari hamda to‘qay o‘rmonlarining maydonlari kiradi. Jizzax viloyati Turkiston tizmasining g‘arbiy

леса. Джизакская область включает предгорья и среднегорья западной части Туркестанского хребта с его западными отрогами – хребтами Мальгузар, Койташ и Нуратау, значительную часть Айдар-Арнасайской системы озер и восточную часть пустыни Кызылкум. Разнообразие ландшафтов и мест обитания определяет богатую фауну наземных позвоночных животных этих двух областей. Здесь обитает 2 вида амфибий и 31 вид рептилий 3 отрядов, 372 вида птиц 18 отрядов и 69 видов млекопитающих 6 отрядов.

Часть природных территорий двух областей играет важную роль в поддержании биоразнообразия как на национальном, так и на глобальном уровне. Здесь расположены 2 государственных заповедника, 1 национальный природный парк и 1 государственный заказник; представлены 1 Рамсарский водоем, 3 Важнейших орнитологических территории (ИВА) и 5 ключевых районов биоразнообразия (КВА).

Сырдарьинская и Джизакская области характеризуются не только высоким уровнем биоразнообразия, но и интенсивной хозяйственной деятельностью. Здесь расположена обширная равнина площадью более 10 тыс. км², ранее известная под названием «Голодная степь». На протяжении более 100 лет эта территория подвергалась интенсивному хозяйственному освоению и превратилась в типичные агроландшафты.

Таким образом, модельная территория сочетает в себе высокий уровень биоразнообразия и интенсивную хозяйственную деятельность. Здесь представлены территории с различными типами природопользования: сельскохозяйственные угодья, горнодобывающие и другие промышленные объекты, лесные и охотничьи хозяйства, охраняемые природные территории, рекреационные зоны.

Такое сочетание позволило выявить большое количество экономически значимых видов позвоночных животных, опре-

qismidagi tog‘ oldi va o‘rta tog‘larni, uning g‘arbidagi – Malguzar, Qo‘ytosh va Nurota tizmalarini, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimining asosiy qismini hamda Qizilqum cho‘lining sharqiy hududlarini o‘z ichiga oladi. Landshaftlar va yashash joylarining xilma-xilligi bu ikki viloyatning quruqlikdagi umurtqalilar faunasining boyligini belgilaydi. Bu yerda 1 turkumga mansub amfibiyalarning 2 turi va 2 turkumga mansub sudralib yuruvchilarning 31 turi, 18 turkumga tegishli qushlarning 372 turi hamda 6 turkumga mansub sutemizuvchilarning 69 turi yashaydi.

Ikki viloyat tabiiy hududlarining bir qismi, biologik xilma-xillikni saqlashda milliy hamda global darajada muhim rol o‘ynaydi. Bu yerda 2 ta davlat qo‘riqxonasi, 1 ta milliy tabiat bog‘i va 1 ta davlat buyurtmaxonasi joylashgan; 1 ta “Ramsar” suv havzasi, 3 ta muhim ornitologik hududlar (IBA) va 5 ta asosiy biologik xilma-xillik hududlari (KBA) mavjud.

Sirdaryo va Jizzax viloyatlari nafaqat bioxilma-xillikning yuqori darajasi, balki intensiv xo‘jalik faoliyati bilan ham ajralib turadi. Bu yerda 10 ming km² dan ortiq maydonga ega, ilgari “Mirzacho‘l” nomi bilan ma‘lum bo‘lgan keng tekislik joylashgan. 100 yildan ortiq vaqt davomida xo‘jalik faoliyatining intensiv rivojlanishi hisobida, bu hudud tipik agrolandshaft yerlariga aylantirildi.

Shunday qilib, namunaviy mintaqa yuqori darajadagi bioxilma-xillik va intensiv xo‘jalik faoliyatini o‘zida birlashtiradi. Bu yerda tabiatdan foydalanishning turli xil tiplari: qishloq xo‘jaligi yerlari, tog‘-konchilik va boshqa sanoat obyektlari, o‘rmon va ovchilik xo‘jaliklari, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar, dam olish hududlari mavjud.

Tabiatdan foydalanishning turli tiplari ko‘p sondagi iqtisodiy ahamiyatga ega umurtqali hayvonlarning turlarini aniqlash, ulardan xo‘jalikda foydalanish darajalari hamda har xil tiplari-

делить различные типы и степень их хозяйственного использования, провести территориальный анализ этих показателей.

Предлагаемая последовательность проведения классификации экономически значимых видов позвоночных животных представлена на схеме (рис. 1).

Списки видов, имеющих социально-экономическое значение, должны составляться на основе полных современных списков наземных позвоночных животных конкретной территории. Поскольку сведения о ресурсах животного мира, особенно в разрезе административных областей, значительно устарели и фрагментарны, необходима современная ревизия, или инвентаризация фауны.

Полные современные списки наземных позвоночных животных Сырдарьинской и Джизакской областей были подготовлены коллективом авторов в рамках инвентаризации фауны наземных позвоночных этих областей в 2020-2022 гг.




Рисунок 1. Последовательность проведения классификации экономически значимых видов позвоночных животных

ni aniqlash, ushbu ko'rsatkichlarning hududiy tahlilini o'tkazish imkonini berdi.

Umurtqali hayvonlarning iqtisodiy ahamiyatga ega turlarini tasniflashning tavsifiya qilingan ketma-ketligi diagrammada keltirilgan (1-rasm).

Ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega hisoblangan turlarning ro'yxati, aniq bir hudud uchun quruqlikdagi umurtqali hayvonlarning to'liq zamonaviy ro'yxatlari asosida shakllantirilishi kerak. Hayvonot dunyosi resurslari to'g'risidagi ma'lumotlar, ayniqsa ma'muriy hududlar kesimida, ancha eskirgan va fragmentar ko'rinishda bo'lganligi sababli, faunani inventarizatsiya qilish yoki zamonaviy qayta ko'rib chiqish zarur.

Mualliflar jamoasi tomonidan, 2020-2022-yillarda Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining quruqlikdagi umurtqali hayvonlar faunasini inventarizatsiya qilish doirasida, bu viloyatlarning quruqlikdagi umurtqali hayvonlarining to'liq zamonaviy ro'yxatlari tayyorlandi.



1 - rasm. Iqtisodiy ahamiyatdagi umurtqali hayvonlarning turlarini tasniflash tartibi ketma-ketligi

В соответствии с действующим природоохранным законодательством, а также с учетом доработок и уточнений, сделанных на основании проведенных исследований и анализа, виды позвоночных животных, играющих существенную роль в экономике, предлагается разделить на 3 основные группы, включающие следующие категории или типы:

1. Охотничьи виды:

- объекты спортивной, любительской и трофейной охоты;
- добываемые для проведения научных, медицинских и контрольных работ;
- добываемые для содержания и разведения в полувольных условиях или искусственно созданной среде обитания (в т.ч. являющиеся объектами торговли на внутреннем и внешнем рынках);

2. Виды, играющие значимую роль в различных отраслях народного хозяйства (хозяйственно значимые):

- вредители хозяйственной деятельности человека (сельского, охотничьего, рыбного, лесного хозяйств);
- виды – регуляторы численности вредителей;
- источники биоповреждений и загрязнений.

3. Носители опасных инфекций для человека и животных.

Оценка степени использования каждого экономически значимого вида животного должна проводиться с учетом особенностей конкретной территории (желательно по административным областям) по совокупности следующих показателей:

- распределение и численность ресурсных видов позвоночных животных в пределах административных областей;
- интенсивность их использования и/или степень их востребованности природопользователями;
- зависимость потребности в биоресурсах от социально-экономического развития конкретной административной области/областей;

Amaldagi tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan qonunchilikka muvofiq shuningdek, o'tkazilgan tadqiqotlar va tahlillar asosida olib borilgan qayta ishlash va aniqlashtirishlarni hisobga olgan holda, iqtisodiyotga sezilarli rol o'ynovchi umurtqali hayvonlar turlarini toifalar yoki tiplariga ko'ra quyidagi 3 ta asosiy guruhga bo'lish taklif etiladi:

1. Ovlanadigan turlar:

- sport, havaskorlik va o'lja ovi obyektlari;
- ilmiy, tibbiy va nazorat ishlarida ovlanadigan;
- yarim erkin sharoitda yoki sun'iy yaratilgan yashash muhitida saqlash va ko'paytirish uchun tutiladigan (shu jumladan, ichki va tashqi bozorlarda savdo obyektlari hisoblangan);

2. xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida sezilarli o'rin tutadigan turlar (xojalik ahamiyatidagi):

- insonning xo'jalik faoliyatiga ziyon etkazuvchi turlar (qishloq xo'jaligi, ovchilik, baliqchilik, o'rmon xo'jaligi);
- zararkunandalarning sonini boshqaruvchi turlar;
- biozararlantirish va ifloslantirish manbalari.

3. Odamlar va hayvonlar uchun xavfli infeksiyalarni tashuvchilar.

Har bir iqtisodiy ahamiyatdagi hayvon turidan foydalanish darajasini baholash quyidagi ko'rsatkichlarning kombinatsiyasi asosida ma'lum bir hududning xususiyatlarini (imkon darajasida ma'muriy hududlar kesimida) to'liq inobatga olgan holda amalga oshirilishi kerak:

- umurtqali hayvonlarning resurs turlarini ma'muriy hududlarda tarqalishi va soni;
- ulardan foydalanishning jadalligi va tabiatdan foydalanuvchilar tomonidan ularga nisbatan talab darajasi;
- biologik resurslarga bo'lgan ehtiyojning muayyan ma'muriy hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganligiga bog'liqligi;

- степень «вредоносности» видов, наносящих ущерб на территориях, где ведется хозяйственная деятельность (охотничье, лесное, сельское, рыбное хозяйства), в определенный промежуток времени;

- степень «полезности» видов, регулирующих численность вредителей на территориях, где ведется хозяйственная деятельность (охотничье, лесное, сельское, рыбное хозяйства), в определенный промежуток времени.

Степень использования каждого вида по этим показателям для каждой конкретной территории предлагается оценивалась по 3-х балльной шкале: 1 – низкая, 2 - средняя, 3- высокая.

В итоге, использование предлагаемых подходов к классификации экономически значимых видов позволит обновить, значительно расширить списки видов и детализировать существующую классификацию для значительной части рептилий, птиц и млекопитающих. Посредством этого может быть существенно улучшено планирование использования биологических ресурсов фауны и подходы к регулированию численности видов, наносящих ущерб хозяйственной деятельности.

II. ПРАКТИЧЕСКАЯ ЧАСТЬ

В данном разделе демонстрируется применение описанных методических подходов к классификации экономически значимых амфибий, рептилий, птиц и млекопитающих на примере Сырдарьинской и Джизакской областей (табл. 1, 2, 3).

АМФИБИИ И РЕПТИЛИИ

На территории Сырдарьинской и Джизакской областей за весь период зоологических исследований отмечено обитание 2 видов амфибий и 31 вида рептилий. 18 представителей

- xo‘jalik faoliyati yuritiladigan hududlarda (ovchilik, o‘rmon, baliqchilik va qishloq xo‘jaligi) ma‘lum vaqt mobaynida zarar etkazadigan turlarning “zararlilik” darajasi;

- ma‘lum vaqt mobaynida xo‘jalik faoliyati yuritiladigan hududlarda (ovchilik, o‘rmon xo‘jaligi, qishloq xo‘jaligi, baliqchilik) uchrovchi zararkunandalar sonini tartibga soluvchi turlarning “foydalilik” darajasi.

Ma‘lum bir aniq hudud uchun har bir turdan foydalanish darajasini ushbu ko‘rsatkichlar bo‘yicha 3 ballik shkala asosida baholash taklif etiladi: 1 – past, 2 – o‘rta, 3 – yuqori.

Umumlashtirib aytganda, iqtisodiy ahamiyatga ega turlarni tasniflash bo‘yicha taklif qilingan yondashuvlardan foydalanish, turlar ro‘yxatini kengaytirishda, sudralib yuruvchilar, qushlar hamda sutemizuvchilarning aksariyat qismi uchun mavjud tasniflarini batafsil bayon qilish imkonini beradi. Bu orqali faunaning biologik resurslaridan foydalanishni rejalashtirish va xo‘jalik faoliyatiga zarar yetkazuvchi turlar sonini tartibga solishdagi yondashuvlarni sezilarli darajada yaxshilash, mukammallashtirish mumkin.

II. AMALIY BO‘LIM

Ushbu bo‘limda Sirdaryo va Jizzax viloyatlari misolida iqtisodiy ahamiyatga ega amfibiyalar, reptiliyalar, qushlar va sutemizuvchilarni tasniflashda tavsiflangan uslubiy yondashuvlarni qo‘llash ko‘rsatilgan (1, 2, 3-jadvallar).

AMFIBIYALAR VA REPTILIYALAR

Butun zoologik tadqiqotlar davrida Sirdaryo va Jizzax viloyatlari hududida amfibiyalarning 2 turi, reptiliyalarning 31 turi qayd etilgan. O‘zbekiston gerpetofunasining 18 vakili “Davlat tomonidan hisobga olinadigan, foydalanish hajmlari hisobga olinadigan va hayvonot dunyosi obyektlarining davlat kadastriga kiritiladi-

герпетофауны Узбекистана определены в «Перечне видов диких животных, подлежащих государственному учету, учету объемов их использования и включению в государственный кадастр объектов животного мира» (Министерство экологии РУз, 2023) как экономически значимые. Согласно предлагаемой нами классификации, данный список может быть дополнен еще 10-ю видами, имеющими социально-экономическое значение для рассматриваемой территории (табл. 1). В таблице эти виды отмечены звездочкой *.

gan yovvoyi hayvonlar turlarining ro‘yxati”da (O‘zR Ekologiya vazirligi, 2023) iqtisodiy ahamiyatga egaligi belgilangan. Bizning taklif qilayotgan tasnifimizga ko‘ra, ushbu ro‘yxat ko‘rib chiqilayotgan hudud uchun ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan yana 10 tur bilan to‘ldirilishi mumkin (1-jadval). Jadvalda bu turlar yulduzcha (*) bilan belgilangan.

Таблица 1. Классификация видов амфибий и рептилий по типу их экономической значимости и степени использования на примере Сырдарьинской и Джизакской областей

1-jadval. Amfihiya va reptiliyalari turlarini iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra tiplari va foydalanish darajasini tasniflash Sirdaryo va Jizzax viloyatlari misolida

№	Название вида / turlar nomi		Категория и степень экономической значимости видов для Сырдарьинской (I) и Джизакской (II) областей							
			Сырдарыо (I) va Jizzax (II) viloyatlari uchun turlarning iqtisodiy ahamiyatlilik darajasi va toifasi						Вредители рыбного хозяйства	
			Охота / Ov		Для научных целей		Для целей медицины		Baliqchlik xo'jaliklari zararkunandalari	
Научное / ilmiy	Русское / O'zbekcha	Содержание в неволе и разведение		Ilmiy maqsadlar uchun		Tibbiy maqsadlarda		Baliqchlik xo'jaliklari zararkunandalari		
		I	II	I	II	I	II	I	II	
AMPHIBIA – АМФИБИИ – AMFIBIYALAR										
Отряд ANURA – БЕСХВОСТЫЕ АМФИБИИ – DUMSIZ AMFIBIYALAR										
Семейство BUFONIDAE – ЖАБЫ – QURBAQALAR										
1	<i>Bufo viridis</i>	Зеленая жаба / Yashil qurbaqa	1	1	2	2				
Семейство RANIDAE – ЛЯГУШКИ – BAQALAR										
2	<i>Pelophylax ridibundus</i>	Озерная лягушка / Ko'l baqasi	2	2	1	1	1	1		
REPTILIA – ПРЕСМЫКАЮЩИЕСЯ – SUDRALIB YURUVCHILAR										
Надотряд SQUAMATA – ЧЕШУЙЧАТЫЕ – TANGACHALILAR										
Отряд SAURIA – ЯЩЕРИЦЫ – KALTAKESAKLAR										
Семейство AGAMIDAE – АГАМОВЫЕ – AGAMALAR										
3	<i>Phrynocephalus helioscopus</i>	Такырная круглоголовка / Taqir to'garakboshi		1						

4	<i>*Phrynocephalus interscapularis</i>	Песчаная круглоголовка / Qum to'garak-boshi		1							
5	<i>Phrynocephalus mystaceus</i>	Ушастая круглоголовка / Qizil quloq kaltakesak		2							
6	<i>Paralaudakia (Stellio) lehmanni</i>	Туркестанский стеллион / Turkiston agamasi		2							
7	<i>Trapelus agilis</i>	Степная агама / Dasht agamasi		2							
Семейство ANGUIDAE – ВЕРЕТЕНИЦЕВЫЕ – URCHUQSIMONLAR											
8	<i>Pseudopus apodus</i>	Желтопузик / Sariqilon	2	3							
Семейство GEKKONIDAE – ГЕKKОНОВЫЕ – GEKKONLAR											
9	<i>Tenuidactylus fedtschenkoi</i>	Туркестанский геккон / Turkiston gekkoni		1							
10	<i>*Tenuidactylus bogdanovi</i>	Тонкопалый геккон Богданова / Bogdanov gekkoni		1							
11	<i>Mediodactylus russowi</i>	Серый геккон / Kulrang gekkon		1							
12	<i>Teratoscincus scincus</i>	Сцинковый геккон / Sink gekkoni		3							
Семейство LACERTIDAE – НАСТОЯЩИЕ ЯЩЕРИЦЫ – ASL KALTAKESAKLAR											

13	<i>Eremias arguta</i>	Разноцветная ящурка / Rang-barang kaltakesakcha		3						
14	<i>Eremias grammica</i>	Сетчатая ящурка / То'г kaltakesakcha		2						
15	* <i>Eremias lineolata</i>	Линейчатая ящурка / Chiziqli kaltakesakcha	1							
16	<i>Eremias velox</i>	Быстрая ящурка / Tez kaltakesakcha	1	2						
Семейство SCINCIDAE – СЦИНКОВЫЕ – SINKLAR										
17	* <i>Ablepharus deserti</i>	Пустынный гологлаз / Cho'l taqirko'zlisi	2	2						
18	* <i>Ablepharus pannonicus</i>	Азиатский гологлаз / Osiyo taqirko'zlisi		1						
19	<i>Eumeces schneideri</i>	Длинноногий сцинк / Uzunoyoq sink	1	1						
Отряд SERPENTES – ЗМЕИ – ILONLAR										
20	* <i>Platyceps karelinii</i>	Поперечнополосатый полоз / Ko'ndalang yo'lli chipor ilon		1						
21	<i>Hemorrhois ravergieri</i>	Разноцветный полоз / Rang-barang chipor ilon	1	1						

22	<i>*Platyceps rhodorhachis</i>	Краснополосый полоз / Qizil yo'lli chipor ilon		1							
23	<i>*Elaphe dione</i>	Узорчатый полоз / Naqshdor chipor ilon	1	1							
24	<i>Natrix tessellata</i>	Водяной уж / Suvilon	3	3					1	1	
25	<i>*Spalerosophis diadema</i>	Чешуелобый полоз / Xoldor chipor ilon		1							
Семейство LAMPROPHIDAE – ЛАМПРОФИИДЫ – LAMPROFIDLAR											
26	<i>*Psammophis lineolatus</i>	Стрела-змея / O'qilon		1							
Семейство VIPERIDAE – ГАДЮКИ – QORA ILONLAR											
27	<i>Macrovipera lebetina</i>	Гюрза / Ko'lvor ilon		1				3			

